

Topshiriqlar:

1. Quyidagi masalalarni ishleng. (Botanika va matematika fanlarining integratsiyasiga oid topshiriq).

1. Bir o'rmon xo'jaligida qarag'ay ishlab chiqarilgan maydonni o'rganamiz.

- 1 gektarda 400 ta qarag'ay o'sadi.
- O'rmonning umumiy maydoni 25 gektar .
- Har yili har bir daraxt o'rtacha 2,5 kg smola ajratadi.

Savollar:

1. O'rmondagi jami qarag'aylar sonini hisoblang.
2. Bir yilda jami qancha smola ishlab chiqarilsin?
3. Agar smolaning bozorgi narxi 1 kg = 5\$ bo'lsa ushbu xo'jalik qancha foyda oladi?

2. Qarag'ay daraxtining novdasi har yili o'rtacha 35 sm ga oshadi.

- Yosh qarag'ay daraxtining hozirgi vaqtda balandligi **1,4 metr** .
- 10 yildan keyin bu daraxtning balandligini hisoblang.

3. Bitta qarag'ay daraxti kuniga o'rtacha 2,5 kg kislorod ishlab chiqarish.

- O'rmon maydonida **8000 ta qarag'ay daraxti** bor.
- Shu o'rmon bir kunda jami qancha kislorod ishlab chiqariladi?
- Agar bir odam kuniga **0,8 kg** kislorod iste'mol qilsa, ushbu o'rmon nechta odamni kislorod bilan ta'minlay oladi?

4. Qarag'ay daraxti bir mavsumda o'rtacha 2000 ta urug' hosil qiladi.

- Urug'larning faqat **5%** i unib chiqadi.
- Agar o'rmonda **500 ta qarag'ay** bo'lsa, bir mavsumda jami nechta yangi ko'chat unib chiqadi?



2. Ochiq urug`lilarning yo`qolib ketgan turlari mavzusida tezis tayyorlang. **(Botanika va ilmiy tadqiqot metodologiyasi fanlarining integratsiyasiga oid topshiriq).**

3. Qarag`aylarning fizik xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz? Quyidagi savollarga javob bering. **(Botanika va fizika fanlarining integratsiyasiga oid topshiriq).**

Qarag'ay ignabarlarning aerodinamikasi qanday amalga oshadi?

Shamol va yog'ingarchilikning ignabarglilarga ta'sirini qanday o`rgansa bo`ladi?

Suvning yog'och orqali ko'tarilish mexanizmini kapillyar effekt qanday amalga oshadi?

4. Qarag`aylar o`zidan turli xil moddalar ajratadi. Bu moddalar tibbiyot va farmasevtikada qanday maqsadlarda qo`llaniladi? **(Botanika va tibbiyot fanlarining integratsiyasiga oid topshiriq).**